



2018 yil iyul oyi holatga ko'ra

## Talabalik yoki abituriyentlik vizasini olish uchun kerakli hujjatlar haqida eslatma

Davlat oliy o'quv yurti yoki davlat tomonidan tan olingan oliy o'quv yurti yoki shunga o'xshash o'quv muassasasiga o'qishga qabul qilingani haqidagi tasdiqnomaga ega shaxslar **talaba** hisoblanadi.

Germaniya oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishga qiziqqan, ammo, oliy o'quv yurti yoki tayyorlov o'quv kurslariga hali **qabul qilinmagan** shaxslar **abituriyent** sanaladi.

Talabalik vizasiga so'rovnomasini topshirmoqchi bol'gan arizachilar [Internet orqali qabulga yozilishlari](#) shart. Taqdim etilgan so'rovnomalarni ko'rib chiqish holati haqida telefon orqali ma'lumot berilmaydi.

Viza so'rovnomasi qaror qabul qilish maqsadida **Germaniyadagi xorijiy fuqarolar ishlari bo'yicha mas'ul idoraga (Ausländerbehörde)** yuboriladi. Shu sababdan yashash ko'zda tutilayotgan **manzil** (ko'cha, pochta indeksi va joy nomi) so'rovnomada **to'liq va aniq ko'rsatilishi lozim**. Agar Siz yakuniy manzil haqida hali ma'lumotga ega bo'lmasangiz, **oliy o'quv yurtining aniq manzili, murojat uchun telefon raqamlari va mas'ul shaxsning ism-sharifini** qayd etishingizni so'raymiz.

O'qishga bo'lgan qiziqish yetarlicha asoslab berilsa, o'qishga qabul qilinganlik haqida tasdiqnoma mavjud bo'lsa, o'qishni moliyalashtirish kafolatlangan bo'lsa va viza olish uchun mos keladigan ([viza so'rovnomasini topshirish haqidagi eslatmaga qarang](#)) pasport taqdim etilganda, ushbu viza so'rovnomasini ko'rib chiqish muddati uning yuborilgan kunidan boshlab **uch haftayu ikki ish kunigacha qisqartirilishi mumkin. Barcha kerakli hujjatlar topshirilmasa yoki arizachi haqiqatdan ham o'qishga ketayotgani shubha uyg'otsa, hujjatlarni ko'rib chiqish vaqti alohida hollarda 6-8 haftani tashkil etishi mumkin.** Shuning uchun **so'rovnomani** semestr boshlanishidan **kamida 8 hafta** oldin topshirish tavsiya qilinadi. Ushbu muddat mobaynida hujjatlar ko'rib chiqilish xolati haqidagi savollardan o'zingizni tiying, bunday ma'lumot telefon orqali ham berilmaydi. Sizning so'rovnomangiz bo'yicha qabul qilingan ijobiy **qaror** haqida telefon yoki elektron pochta orqali habar topasiz. So'rovnoma rad etilgani haqidagi qaror esa faqat yozma ravishda (elektron) pochta orqali yuboriladi yoki arizachi uni shaxsan o'zi olib ketishi mumkin.

Elchixona uch oy muddatga viza beradi. Germaniyadagi xorijiy fuqarolar ishlari bo'yicha mas'ul idoraga kerakli hujjatlar (jumladan, tibbiy sug'urta ham) taqdim etilganidan so'ng, idora Germaniya hududida vaqtincha qolish uchun karta ko'rinishdagi elektron ruxsatnoma beradi. Ushbu ruxsatnoma tizimi 2011 yil 1 sentabrdan boshlab muomalaga kiritilgan.

Germaniya hududiga kirib kelgandan so'ng, bu haqda yashash joyingizdagi xorijiy fuqarolar ishlari bo'yicha mas'ul idoraga xabar qilishingiz lozim. Ushbu idora Germaniyada vaqtincha qolish bo'yicha yakunlovchi qaror qabul qiladi.

**Talabalik vizasini olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:**

**Manzil:** 100017 Toshkent  
Sh. Rashidov ko'chasi, 15

**tel.:** +998 71 120 84 86  
**faks:** +998 71 120 84 80

**E-mail:** info@taschkent.diplo.de  
**Web-sahifa:** www.taschkent.diplo.de

Har bir hujjat/ma'lumotnoma/tarjimaning **asli** hamda **ikkitadan DIN A4 formatdagi kseronusxasi** taqdim etilishi lozimligiga e'tibor berishingizni so'raymiz (asl nusxalar hujjatlaringiz ko'rib chiqilganidan keyin Sizga qaytariladi). Xorijiy tildagi hujjatlar vakolatga ega tarjimon tomonidan nemis tiliga o'girilgan bo'lishi shart.

1. **ikki nusxada, nemis tilida batafsil to'ldirilgan va arizachi tomonidan imzolangan viza so'rovnomasi blanki** hamda **uch dona biometrik fotosurat. Blankni** (Germaniyada vaqtincha qolish uchun ruxsat) elchixonaning internetdagi [www.taschkent.diplo.de](http://www.taschkent.diplo.de) web-sahifasidan olish mumkin.
2. So'rovnomada oliygoh joylashgan shahar, oliygoh nomi, mutaxassislik va ta'lim yo'nalishini qayd etish lozim.
3. **pasport**, 2-3 sahifalar (shaxsiy ma'lumotlar) hamda O'zbekistonda ro'yxatga qo'yilganlik to'g'risidagi ma'lumotlar haqidagi sahifalaridan nusxasi bilan;
4. Agar o'qishga qabul qilingan bo'lsangiz, buni tasdiqlovchi hujjat (**Zulassungsbescheid**) yoki Germaniya oliygohlaridan birida **o'qish uchun taklifnoma** (Kopiya bilan topshirish mumkin);
5. Hozirgi kunga qadar O'zbekiston oliy o'quv yurtida ko'rsatgan natijalaringizni tasdiqlovchi hujjatlar, diplomlar hamda ta'lim olib boriladigan **chet tilini bilish**ingizni tasdiqlovchi hujjatlar (nemis tili uchun odatda DSH yoki TestDaF sertifikat). Agar chet tilini bilish **o'qishga qabul qilish uchun qo'yiladigan talab** bo'lsa va bu talab o'qishga qabul qilish haqidagi qarorda o'z aksini topgan bo'lsa, chet tilidagi bilimlarni tasdiqlash **shart emas**. Chet tilini o'rganish tayyorlov kursi doirasida amalga oshirilsa, unda til o'rgatish kurslarida ishtirok etish uchun ariza topshirilganligini va tegishli to'lov amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilishi lozim.
6. O'qishning kamida birinchi yiliga **yetarli miqdorda moddiy mablag' mavjudligini tasdiqlovchi hujjat** (oyiga 720 yevro = yiliga 8.640 yevro). Tasdiqnoma quyidagi shakllarda taqdim etilishi mumkin:
  - biror jamg'arma tomonidan oyiga 720 yevro miqdorida stipendiya ajratilishi haqida berilgan qaror; (stipendiya yetarli bo'lmasa, farqni qoplash quyidagicha imkoniyatlar asosida tasdiqlanishi mumkin):  
yoki,
  - Germaniya hududida bo'lish to'g'risidagi qonunning (Aufenthaltsgesetz) 66-68 moddalari asosida berilgan kafolat xati (Verpflichtungserklärung)  
yoki,
  - Germaniya banklaridan/ jamg'arma banklaridan birida Sizning nomingizga ochilgan yopiq hisob raqamida 8.640 evro miqdorida mablag' borligini tasdiqlovchi hujjat.

**Ilmiy faoliyatni amalga oshirish maqsadida taklif qilingan olimlar, shuningdek, jamoat tashkilotlari (masalan DAAD, Humboldt nomidagi jamg'arma) stipendiyatlari** uchun viza berishning **yengillashtirilgan tartibi qo'llaniladi** va ular **konsullik badalini to'lashdan ozod etiladi**. Bunday holatlarda maslahat uchun elchixonaga o'z vaqtida murojaat qiling.

**Abiturientlik vizasini** olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

Har bir hujjat/ma'lumotnoma/tarjimaning **asli** hamda **ikkitadan DIN A4 formatdagi kseronuxsasi** taqdim etilishi lozimligiga e'tibor berishingizni so'raymiz (asl nusxalar hujjatlaringiz ko'rib chiqilganidan keyin Sizga qaytariladi). Xorijiy tildagi hujjatlar vakolatga ega tarjimon tomonidan nemis tiliga o'g'irilgan bo'lishi shart.

1. **ikki nusxada, nemis tilida batafsil to'ldirilgan va arizachi tomonidan imzolangan viza so'rovnomasi blanki hamda uch dona biometrik fotosurat.** Blankni (Germaniyada vaqtincha qolish uchun ruxsat) elchixonaning internetdagi [www.taschkent.diplo.de](http://www.taschkent.diplo.de) web-sahifasidan olish mumkin.
2. So'rovnomada oliygoh joylashgan shahar, oliygoh nomi, mutaxassislik va ta'lim yo'nalishini qayd etish lozim.
3. **Pasport**, uning 2-3 (shaxsiy ma'lumotlar) hamda O'zbekistonda ro'yxatga qo'yilganlik to'g'risidagi ma'lumotlar haqidagi sahifalaridan nusxasi bilan;
4. **Germaniya oliygozlaridan biriga o'qish uchun ariza berilganligi** va Germaniya oliygozlaridan biri bilan mavjud aloqani tasdiqlovchi hujjat;
5. Hozirgi kunga qadar O'zbekiston oliy o'quv yurtida ko'rsatgan natijalaringizni tasdiqlovchi hujjatlar, diplomlar hamda ta'lim olib boriladigan **chet tilini bilishingizni** tasdiqlovchi hujjatlar (nemis tili uchun odatda DSH yoki TestDaF sertifikat). Agar chet tilini bilish **o'qishga qabul qilish uchun qo'yiladigan talab** bo'lsa va bu talab o'qishga qabul qilish haqidagi qarorda o'z aksini topgan bo'lsa, chet tilidagi bilimlarni tasdiqlash **shart emas**. Chet tilini o'rganish tayyorlov kursi doirasida amalga oshirilsa, unda til o'rgatish kurslarida ishtirok etish uchun ariza topshirilganligini va tegishli to'lov amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilishi lozim.
6. O'qishning kamida birinchi yiliga yetarli moddiy mablag' mavjudligini tasdiqlovchi hujjat (oyiga 720 yevro = yiliga 8.640 yevro). Tasdiqnoma quyidagi shakllarda taqdim etilishi mumkin:
  - Germaniya hududida bo'lish to'g'risidagi qonunning (Aufenthaltsgesetz) 66-68 moddalari asosida berilgan kafolat xati (Verpflichtungserklärung) *yoki*,
  - Germaniya banklaridan/ jamg'arma banklaridan birida Sizning nomingizga ochilgan yopiq hisob raqamida 8.640 evro miqdorida mablag' borligini tasdiqlovchi hujjat.

**Viza badali 75 yevroni** tashkil etadi va to'lov hujjatlar topshirilayotganda faqat o'zbek so'mida (amaldagi kurs bo'yicha) amalga oshiriladi. Kupyuralar 2001 yildan eski bo'lmasligi, yaxshi holatda, muhr va yozuvlarsiz bo'lishi shart.

**Qabulga yozilish va viza bo'limining qabul vaqtlari haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar** „[Viza olish uchun kerakli hujjatlarni topshirish haqida eslatma](#)“ va „[Qabulga oldindan yozilish tizimi haqida eslatma](#)“da ko'rsatilgan.

E'tibor bering:

Arizachilar O'zbekistonda yashash joylaridan o'qishga ketish arafasida ro'yxatdan chiqq olishmasa, lekin, O'zbekistonda yangi pasport olish uchun ariza va Germaniyaga qayta kirish uchun viza olish maqsadida so'rovnoma topshirishsa, unda quyidagilarni inobatga olishlari lozim:

- eski pasportni O'zbekiston Respublikasining mas'ul idoralariga topshirishdan oldin uni Germaniyaning Toshkentdagi elchixonasida Germaniyada vaqtincha bo'lish uchun berilgan vizani bekor qildirish lozim.
- Germaniyaga qayta kirish uchun viza olish maqsadida so'rovnoma topshirish uchun eski pasportingizning nusxasi kerak bo'ladi. Safar maqsadini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish tavsiya qilinadi.